BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BARATOVA MADINA XASANOVNA

KAMBAG‘AL OILALARDAGI BOLALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING FALSAFIY MASALALARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316:364-78-053.2(575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Baratova Madina Xasanovna
Kambag‘al oilalardagi bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishning falsafiy masalalari 5

Баратова Мадина Хасановна
Философские вопросы повышения социальной активности детей из малообеспеченных семей.....23

Baratova Madina Khasanovna
Philosophical issues of the development of social activity of children from low-income families.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BARATOVA MADINA XASANOVNA

KAMBAG‘AL OILALARDAGI BOLALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING FALSAFIY MASALALARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1579 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Huseynova Abira Amanovna** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Turdiyev Bexruz Sobirovich** falsafa fanlari doktori, professor
	Abilov O‘rol Murodovich falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “21” noyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi . (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/1112 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “7” noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “7” noyabr dagi 41 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashuvi bolalar kambag‘alligini jamiyat tuzilmasining ichki ziddiyatiga aylantirmoqda: bola huquqlari universal, imkoniyatlar esa oila kapitali va hududiy muhit orqali notekis taqsimlanadi, natijada kambag‘allik avlodlararo takrorlanadi. Muhtojlik mezoniga tayangan ijtimoiy himoya tizimining bolani yordam obyekti sifatida qayd etishi va natijaning qamrov hamda mablag‘ hajmi bilan o‘lchanib, subyektlik darajasining o‘lchovdan chetda qolishi undan faol subyekt shakllantirish maqsadiga zid keladi. Shu bois moddiy tanqislik sharoitida voyaga yetayotgan bolalarda sog‘lom dunyoqarash, mustaqil tafakkur va ijtimoiy daxldorlikni qaror toptiruvchi, boqimandalik kayfiyatining oldini oluvchi mexanizm va mezonlarni ishlab chiqish, ijtimoiy siyosatning transformatsion xarakterini, uning himoya va faollashtirish o‘lchovlaridagi ziddiyatli birligini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlari va ta’lim muassasalarida jamiyat taraqqiyotida bolalar kambag‘alligini bartaraf etishning o‘rni va ahamiyati, bu jarayonni kompleks baholash, ijtimoiy himoya tizimining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, kam ta’minlangan oilalar muhitini sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq bu izlanishlarda e’tibor asosan mahrumlikni o‘lchash va qoplashga qaratilib, ko‘rsatilayotgan ko‘mak hajmi bilan bolaning faollik darajasi o‘rtasidagi nomutanosiblik, uning himoya obyektidan ijtimoiy subyektga aylanish shartlari yetarlicha ochib berilmagan. Shu nuqtai nazardan, kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini aniqlash, ularning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish omillarini tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirish siyosati mazmunini jamoatchilikka yetkazish, kam ta’minlangan oilalarni manzilli qo‘llab-quvvatlash, bolalarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash, ularning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlash, hozirgi islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. “odamlarga kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy bergan bilan kambag‘allik muammosi hal bo‘lib qolmaydi. Buning uchun avvalo, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suvi ta’minoti, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etish lozim”[1]. Ushbu yondashuv moddiy yordam berishdan inson kapitalini rivojlantirishga o‘tishni, ijtimoiy siyosatning markaziga bola shaxsini qo‘yishni taqozo etadi. Bu borada kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishda Yangi O‘zbekiston fenomenining ijtimoiy-integrativ xususiyati, dialektik tendensiyalarini aniqlash, xalqaro reytinglar va indekslarda mamlakat nufuzini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. –B.85.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 8-maydagi PF-84-sonli “Kambag‘al oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-sonli “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-sonli “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” farmonlari, 2025-yil 18-dekabrdagi PQ-383-sonli “Aholining ehtiyojmand qatlamlariga hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-sonli “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-yanvardagi 35-sonli “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 27-fevraldagi 125-sonli “Oilalarni kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan ko‘mak choralarini ko‘rsatishga doir tartib-taomillarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda kam ta’minlangan oila bolasining ta’lim olishdagi ishtiroki, o‘qituvchilarda qashshoqlik haqida shakllangan tasavvurlar va bu tasavvurlarning o‘quvchilar o‘zlashtirishiga ta’siri, yolg‘iz onalarda tirikchilik manbalarining tanqisligi va shu asosda tengsizlikning avloddan avlodga o‘tishi, turli etnik guruhlarga mansub bolalarning ijtimoiy himoya tizimidagi holati Sh.Braxton, S.Herbst, Sh.Kanji, L.Platt kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Qashshoqlik va ijtimoiy chetlatilish masalasiga bolaning o‘z nigohi orqali yondashish, kam ta’minlangan hududlardagi maktablarning yuqori natijaga erishish omillari, bolalarni qashshoqlikdan olib chiqishga qaratilgan maktab va jamoa asosidagi dasturlarning samaradorligi T.Ridge, F.Steagall, M.Tang tomonidan olib borilgan dissertatsion tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan[2].

[2] Braxton Shereasa T’hia. Low−Income Families’ Engagement in Their Child’s Educational Experience. Dissertation. –Phoenix: Grand Canyon University, 2022. –245 p.; Herbst Sydney Roberts. Teacher perceptions of poverty and elementary school student achievement. Doctoral dissertation. –Columbia: University of Missouri, 2009. –95 p.; Kanji Shireen. Poverty, inequality and livelihoods: lone mothers and their children in Russia. Thesis. –London: London School of Economics and Political Science, 2005. –252 p.; Platt Lucinda. The experience of poverty: welfare dynamics among children of different ethnic groups. Thesis. –Oxford: University of Oxford, 2001. –428 p.; Ridge Tess. A child−centred approach to childhood poverty and social exclusion. PhD thesis. –Bath: University of Bath, 2000. –261 p.; Steagall Felicia. From Children of Poverty to Children of Hope: Exploring the Characteristics of High−Poverty

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan kambag‘allikning ijtimoiy tarkibdagi o‘rni, aholi turmush darajasi masalalari, uning ijtimoiy oqibatlari, xizmat ko‘rsatish mexanizmlari va samarali ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish yo‘llari nazariy jihatdan tahlil etilgan ishlar qatoriga I.Lauxina, S.Dagbayeva, S.Gamatayeva ilmiy ishlarini, kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalarning ijtimoiy moslashuvi, bolalarni qo‘llab-quvvatlash masalalarining zamonaviy yechimlariga G.Plyaskina, A.Kurzeneva, L.Bondarovskaya, A.Varizgina kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini misol keltirish mumkin[3].

O‘zbekistonda J.Davletov, X.Danabayev, A.Meliboyev, R.Zohirov tadqiqotlarida kambag‘allik mezonlari, kelib chiqish sabablari va ijtimoiy oqibatlari, Yangi O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslari, oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma’naviy jihatlari yoritilgan. M.G‘aniyev, F.Dodiyev, A.Vahobov, A.Xolmirzayev, Sh.Davronov va bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kambag‘allik tushunchasining ijtimoiy mohiyati, uning turlari va mezonlari, aholi kambag‘alligini aniqlash usullari, xorijiy tajribadan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. B.Xolmatov, R.Ergashev, H.Ahmedov, Sh.Mustafaqulov, U.Vosiqov asarlarida kambag‘allikni qisqartirishning hududiy omillari, bandlik orqali oilalar farovonligini oshirish yo‘llari, kambag‘allik darajasini o‘lchash mezonlari tahlil qilingan. Oila ma’naviy-axloqiy muhitining shaxs kamolotidagi o‘rni, oilaning jamiyat taraqqiyotidagi tayanch vazifasi, kambag‘allikka nisbatan ma’naviy-axloqiy munosabat masalalariga M.Quronov, X.Abduramanov, O.Musurmanova, M.Farmonova, A.Boyqobilov, H.Temirov, B.Turdiyev, O‘.Abilov tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratilgan[4].

High−Performing Schools, Teachers, Leadership and the Factors That Help Them Succeed in Increasing Student Achievement. Dissertation. –Cincinnati: University of Cincinnati, 2012. –178 p.; Tang Mun Yu. Helping Poor Children out of Poverty? A Multiple−Case Study of School−based and Community−based Programmes in Hong Kong. Thesis. –Hong Kong: The Chinese University of Hong Kong, 2013. –489 p.

[3] Лаухина И.В. Особенности бедности малоимущих слоев населения в социальной структуре региона. Дисс. канд. наук. –Хабаровск, 2006. –225 с.; Дагбаева С.Д.−Н. Уровень жизни населения: пути решения проблемы бедности. Дисс. канд. наук. –Улан−Удэ, 2004. –194 с.; Гаматаева С.Х. Совершенствование форм и методов предоставления услуг малообеспеченным слоям населения в системе социальной защиты. Дисс. канд. наук. –Махачкала, 2011. –182 с.; Пляскина Г.Е. Социальная адаптация малообеспеченных семей в новых социально−экономических условиях: на материалах Республики Бурятия. Дисс. канд. наук. –Улан−Удэ, 2007. –210 с.; Курзенева А.Г. Многодетные семьи: образ жизни, здоровье детей, социальная защита. Комплексное социологическое исследование по материалам Республики Татарстан. Дисс. канд. наук. –Казань, 1999. –167 с.; Бондаровская Л.В. Социально−педагогическая поддержка детей из неблагополучных семей в условиях реабилитационного центра. Дисс. канд. наук. –Омск, 2010. –177 с.; Варызгина А.А. Превентивные стратегии избегания бедности, избираемые семьями с несовершеннолетними детьми. Дисс. канд. наук. –Нижний Новгород, 2016. –149 с.

[4] Давлетов Ж.Б. Ўзбекистонда «Ҳар бир оила – тадбиркор» консепсияси ва унинг инновацион моҳияти. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. –Самарқанд, 2020. –132 б.; Danabayev X.N. Kambag‘allik mazmuni va mezonlari, sabablari va oqibatlarining ijtimoiy−falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Samarqand, 2024. –46 b.; Meliboyev A.N. Yangi O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasining ijtimoiy−falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Toshkent, 2023. –50 b.; Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy−demografik, normativ va etnoma’naviy asoslari. Falsafa fanlari doktori (DSc) diss. –Toshkent, 2023. –402 b.; Ғаниев М.Х. Камбағаллик муаммосининг моҳияти, омиллари ва қисқартириш йўллари. Монография. –Тошкент: “Usmon Nosir media”, 2021. –264 б.; Ганиев М. Ўзбекистонда камбағаллик муаммоси ва уни камайтириш йўллари. Монография. –Тошкент: “Аржуманд медиа”, 2020. –179 б.; Додиев Ф.Ў., Ваҳобов А.В. ва бошқ. Ўзбекистонда аҳоли камбағаллигини аниқлаш ва қисқартириш. Монография. –Тошкент, 2023. –132 б.; Xolmirzayev A.X. Kambag‘allik, uning turlari va mezonlari // “Ta’lim tizimida ijtimoiy−gumanitar fanlar” jurnali, № 5, 2025. –

Tadqiqot olib borish jarayonida mavzuga oid ilmiy ishlar, olimlarning nazariy qarashlari va tahlillari metodologik ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston sharoitida kambag‘al oila bolalarini ijtimoiy himoya obyekti sifatida emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda individual va ijtimoiy omillarning uyg‘unligini asoslash borasida yetarli ilmiy izlanishlar olib borilmagan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasidagi islohotlarni amaliyotga joriy etish mexanizmlari bilan bog‘liq masalalar esa hali to‘liq tadqiq etilmagan. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, mazkur ishda kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026-yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligi tushunchasining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari va namoyon bo‘lish mezonlarini aniqlashtirish;

bolalar farovonligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishiga doir falsafiy qarashlar rivojini tadqiq etish;

kambag‘al bolalar ehtiyojlar va imkoniyatlar, ijtimoiy ishtirokdagi cheklovlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hamda ularni bartaraf etishga doir konseptual yondashuvlarni qiyosiy tahlil etish;

bolaning ijtimoiy faolligini belgilovchi individual va ijtimoiy omillarning dialektik aloqadirligini ochib berish;

Yangi O‘zbekistonda kambag‘allik va qashshoqlikka barham berishga qaratilgan islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirish;

B.170−180; Davronov Sh. Kambag‘allik va uni aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar: xorijiy tajriba va O‘zbekiston uchun ustuvor vazifalar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, № 7, 2020. –B.7−14; Xolmatov B.A. Maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish – kambag‘allikni qisqartirish omili. Monografiya. –Farg‘ona: FarDU, 2024. –98 b.; Ergashev R.X. Mintaqada kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari. Monografiya. –Qarshi: “Intellekt”, 2025. –168 b.; Аҳмедов Ҳ. Камбағаллик қандай бартараф этилмоқда? // “Халқ сўзи” газетаси, 2020−йил, № 32; Мустафақулов Ш. Камбағаллик айб эмас, бироқ... // “Халқ сўзи” газетаси, 2020−йил 25−март, № 62. –Б.1−4; Восиқов У. Камбағаллик, уни камайтиришнинг қандай йўллари мавжуд? // “Халқ сўзи” газетаси, 2020−йил 18−июль, № 151. –Б.4; Quronov M., Abduramanov X. Oilaning ma’naviy−axloqiy muhiti. –Toshkent: “Pages print” nashriyoti, 2025. –B.8; Мусурманова О. Оила – жамият таянчи. Монография. –Тошкент: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019. –252 б.; Фармонова М. Шарқ мутафаккирларининг маънавий меросида фарзанд тарбияси. –Тошкент: “Tasvir nashriyot uyi”, 2020. –36 б.; Бойқобилов А. Исломда камбағаллик муолажаси. –Тошкент: “Azmir nashr print”, 2021. –120 б.; Темиров Ҳ. “Камбағаллик айб эмас”...ми? // “Инсон ва қонун” газетаси, 2020−йил, № 4. –Б.4; Turdiyev B.S. Yangi O‘zbekiston jamiyati taraqqiyoti ideosferasidagi o‘zgarishlar dinamikasi. Monografiya. –Toshkent: “Dimal”, 2024. –108 b.; Абилов Ў. Ўзбекистон тараққиёти: оптимизм, маънавият, мафкура ва тафаккур эволюцияси. –Тошкент: “Fan ziyosi”, 2022. –320 б.

kambag‘al oilalardagi bolalarning ijtimoiy kapitalini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonda kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini belgilovchi individual va ijtimoiy omillarning o‘zaro aloqadorligi, mazkur jarayondagi ziddiyatlar hamda ularni bartaraf etishning ijtimoiy-falsafiy asoslaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik birligi, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda kontent-tahlil usullaridan, shuningdek, dialektik, aksiologik va tizimli-funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini o‘lchov mezonlari sifatida yoshiga mos qarorlar qabul qilishdagi mustaqillik, ijtimoiy hayotda ongli ishtirok etish, yutuqqa intilish va mavjud imkoniyatlardan foydalanishdagi tashabbuskorlik tizimlashtirilib, mazkur faollikning bolaning shaxsiy intilishlari bilan oilaviy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘lishi aniqlashtirilgan;

muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlashga doir falsafiy qarashlar axloqiy burch, huquqiy norma, davlat mas’uliyati va tizimli ijtimoiy kafolatga tayanuvchi yondashuvlar bolaga g‘amxo‘rlik qilishning zaruratini uning huquqlari va rivojlanish imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lashi asoslangan;

kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini belgilovchi individual (ruhiy holat, o‘ziga ishonch, bilim va ko‘nikmalar, orzu-intilishlar) va ijtimoiy (himoya, maktab muhiti, hududiy imkoniyatlar) omillarni rivojlantirish shaxsiy intilishlarning amaliy tashabbusga aylanishiga, yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishga, ijtimoiy to‘siqlarni kamaytirish va bolaning mustaqil harakat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi isbotlangan;

Yangi O‘zbekistonda kambag‘al oilalardagi bolalarning ijtimoiy kapitalini rivojlantirishning ishonch va hamkorlik aloqalarini kengaytirishga oid ijtimoiy, resurslardan foydalanishdagi moddiy to‘siqlarni kamaytirishga oid iqtisodiy, bolalar fikrini ularga daxldor qarorlarda hisobga olishga oid siyosiy, o‘zaro hurmat va daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlashga oid ma’naviy yo‘nalishlari, mentorlik va oila – maktab – mahalla hamkorligida tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ijtimoiy chetlanishni kamaytirish orqali bolalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va ongli ishtirokini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli strategiyalari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishning avlodlararo kambag‘allik zanjirini uzish, teng imkoniyatlar muhitini yaratish, bolada mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishdagi roli hamda inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy adolat tamoyilini amalda

tasdiqlash, jamiyat barqarorligining ma’naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ahamiyati ochib berilgan;

kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligi bolaning oiladagi munosabatlar tizimiga tayangan holda shakllanishi, individual va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelishi, davlat siyosati oiladagi qo‘llab-quvvatlash muhiti bilan birlikda samara berishi kabi qonuniyatlari va ta’limni asosiy ko‘tarilish vositasi deb tan olish, mahalla va oila institutlariga tayanish, bolani himoya obyekti emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida qarash kabi xususiyatlari aniqlashtirilgan;

kambag‘al oila bolalari bilan ishlashda manzilli va individual ehtiyojga asoslangan yordam shakllarini kuchaytirish, maktab va mahallada mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish, ko‘rsatilayotgan ko‘mak samaradorligini muntazam baholab borish, hududlar kesimida tahliliy ma’lumotlar tayyorlash, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llab-quvvatlash dasturlarini shakllantirish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligining jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy adolat jarayonidagi o‘rni, bolalik davridagi kambag‘allikning ijtimoiy oqibatlari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishidagi ilmiy, nazariy va fundamental tadqiqotlarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari, statistik dalillar, analitik xulosalar va konseptual umumlashmalarni shakllantirish, ularni ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda qo‘llashda hamda kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishning tengsizlikni kamaytiruvchi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi va inson qadrini taraqqiyotning markaziy mezoniga aylantiruvchi falsafiy mohiyatini asoslashda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar kambag‘al oila bolalari bilan ishlashni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan maqsadli dasturlar, hududiy “yo‘l xaritalari”, ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirish, turli toifadagi oilalar bilan ishlashga mo‘ljallangan manzilli yondashuvlarni ishlab chiqishda, ko‘rsatilayotgan ko‘mak ta’sirchanligini oshirishda, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalla va ijtimoiy xizmat markazlari faoliyatida qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini mazmunan boyitish, ularni aniq ehtiyoj egalariga yo‘naltirish, mentorlik va ko‘ngillilik shakllarida tashkil etish, bolalar ongida o‘z kuchiga ishonch va faol fuqarolik nuqtayi nazarini shakllantirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, oliy ta’lim muassasalarida “Ijtimoiy falsafa”, “Ijtimoiy

ish nazariyasi”, “Oila va bolalik sotsiologiyasi” kabi fanlarning o‘quv-uslubiy majmualarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning ijtimoiy-falsafiy tahlilini amalga oshirish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini o‘lchov mezonlari sifatida yoshiga mos qarorlar qabul qilishdagi mustaqillik, ijtimoiy hayotda ongli ishtirok etish, yutuqqa intilish va mavjud imkoniyatlardan foydalanishdagi tashabbuskorlik tizimlashtirilib, mazkur faollikning bolaning shaxsiy intilishlari bilan oilaviy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘lishiga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 1-dekabrdagi 03-33-3391-son ma’lumotnomasi). Natijada, moddiy imkoniyati cheklangan oilalarda o‘sayotgan bolalarni ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish, ularning darsdan tashqari mashg‘ulotlar va maktab o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalaridagi ishtirokini rag‘batlantirish, pedagoglar va ota-onalar hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlashga doir falsafiy qarashlar axloqiy burch, huquqiy norma, davlat mas’uliyati va tizimli ijtimoiy kafolatga tayanuvchi yondashuvlar bolaga g‘amxo‘rlik qilishning zaruratini uning huquqlari va rivojlanish imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lashiga oid xulosalar va tavsiyaviy xarakterdagi natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan 2025-yilda o‘tkazilgan “Mahalliy masalalarni hal etishda bolalar ishtiroki” mavzusidagi konferensiya materiallarini tayyorlash, uning yakunlari bo‘yicha qabul qilingan qaror loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yil 3-dekabrdagi 02/2-05/28-son ma’lumotnomasi). Natijada, kambag‘al oilalarda o‘sayotgan bolalarni mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama etish jarayoniga jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, Bolalar huquqlari bo‘yicha vakil va “Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi” faoliyatini tashkil etishga doir takliflarni ilmiy asoslash orqali ushbu toifadagi bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan hujjat loyihalarining asoslanganlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

kambag‘al oilalardagi bolalar ijtimoiy faolligini belgilovchi individual (ruhiy holat, o‘ziga ishonch, bilim va ko‘nikmalar, orzu-intilishlar) va ijtimoiy (himoya, maktab muhiti, hududiy imkoniyatlar) omillarni rivojlantirish shaxsiy intilishlarning amaliy tashabbusga aylanishiga, yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishga, ijtimoiy to‘siqlarni kamaytirish va bolaning mustaqil harakat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishiga oid tavsiyalar va ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tomonidan 2025-yilda yo‘lga qo‘yilgan “Yosh siyosatchilar ligasi”, “Xorijdagi vatandosh” va “O‘zLiDeP volontyorlik klubi” loyihalari doirasidagi tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Liberal-

demokratik partiyasi Siyosiy kengashining 2025-yil 4-dekabrdagi 01-27/530-son ma’lumotnomasi). Natijada, kambag‘al oila bolalarining taklif va tashabbuslarini o‘rganish, iqtidorini qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta’minlash va daromadini oshirishga qaratilgan partiyaviy loyihalar mazmuni va manzilliligini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda kambag‘al oilalardagi bolalarning ijtimoiy kapitalini rivojlantirishning ishonch va hamkorlik aloqalarini kengaytirishga oid ijtimoiy, resurslardan foydalanishdagi moddiy to‘siqlarni kamaytirishga oid iqtisodiy, bolalar fikrini ularga daxldor qarorlarda hisobga olishga oid siyosiy, o‘zaro hurmat va daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlashga oid ma’naviy yo‘nalishlari, mentorlik va oila – maktab – mahalla hamkorligida tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ijtimoiy chetlanishni kamaytirish orqali bolalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va ongli ishtirokini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli strategiyalariga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi faoliyatida, “Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va istiqboldagi rejalar” mavzusidagi davra suhbati materiallarini tayyorlashda, “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 04/8-10-37-son ma’lumotnomasi). Natijada, nogironligi bo‘lgan bolalarga davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliq imtiyozlari bilan rag‘batlantirish, ota-onalar zimmasidagi moliyaviy yukni yengillashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslash orqali ushbu toifadagi oilalarni kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan qonunchilik normalarining asoslanganlik darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 159 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining

ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kambag‘al oilalardagi bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda “kambag‘allik”, “kambag‘al oila”, “kambag‘al oila bolalari” va “kambag‘al oila bolalarining ijtimoiy faolligi” tushunchalarining falsafiy mohiyati, bolalik davridagi kambag‘allikning ko‘p o‘lchovli tabiati, ijtimoiy oqibatlari va tuzilmaviy-funksional belgilariga izoh berilgan, shuningdek, Sharq va G‘arb mutafakkirlari merosida muhtoj bolani qo‘llab-quvvatlash masalalari tadqiq etilgan.

Har qanday jamiyat barqaror rivojlanishi faqat moddiy omillar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki institutsional yangilanishlar bilan emas, balki o‘zining eng zaif a’zosiga munosabati, inson qadrini e’tirof etish darajasi va imkoniyatlar tengligi bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda kambag‘al oila bolalarining ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyotining ichki mazmunini, ijtimoiy adolat darajasini va uzoq muddatli barqarorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda kambag‘allik hodisasiga ham tarixiylik va zamonaviylik, barqarorlik va o‘zgaruvchanlik xos ekani ta’kidlangan. Jamiyat va davlat hayotida kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirish, birinchidan, bolaning ichki olamini, uning o‘ziga ishonchi, orzu-intilishlari va salohiyatini yuksaltirishi; ikkinchidan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va uy-joy sohalarini chuqur isloh qilib, teng imkoniyatlar muhitini yaratishi; uchinchidan, jamiyatda kambag‘allikka nisbatan yangicha qarashni shakllantirib, uni shaxsiy taqdir emas, balki ijtimoiy-tuzilmaviy hodisa sifatida talqin etishi; to‘rtinchidan, bolani himoya obyekti emas, balki o‘z kamolotining faol ishtirokchisi sifatida e’tirof etishi asoslab berilgan.

Shundan kelib chiqib, jamiyat hayotida kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishning funksiyalari shartli ravishda to‘rtga ajratib tahlil etilgan:

birinchidan, bilish funksiyasi. Ijtimoiy faollikni oshirish bolaning ta’limga, mutolaaga va kasb-hunar egallashga intilishini kuchaytiradi. Cheklangan moddiy sharoitda ham maktab va ommaviy kutubxona resurslaridan foydalanish, dunyoqarashni kengaytirish avlodlararo “kambag‘allik zanjiri”ni uzishning bosh vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish funksiyasi. Bolaning jamiyat hayotida teng huquqli ishtirok etishi ijtimoiy chetlatilishni kamaytiradi, stigma va kamsitish holatlarini bartaraf etadi, davlat ijtimoiy siyosatining manzilli va adolatli tarzda amalga oshirilishiga zamin hozirlaydi;

uchinchidan, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash (konsolidatsiya) funksiyasi. Turli qatlamlarni bog‘lovchi aloqalar bolalar uchun ijtimoiy ko‘tarilish yo‘lini ochib, jamiyatdagi tengsizlikni yumshatadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

haqli ravishda ta’kidlaganidek, “odamlarning bilimini oshirmasdan, ularni “kambag‘allik girdobi”dan chiqarish imkonsizdir”[5];

to‘rtinchidan, faol va mas’uliyatli fuqaroni tarbiyalash funksiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi bolani o‘z kamolotining faol ishtirokchisi sifatida e’tirof etib, uning rivojlanib boruvchi qobiliyatlarini hurmat qilishni talab etadi[6]. Shu asosda kambag‘al oila bolasi sharoit qurboni emas, balki o‘z hayotiga ma’noli ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada “Kambag‘al oilalardagi bolalarning ijtimoiy faolligi – daromadi minimal iste’mol xarajatlarini qoplashga yetmaydigan, shu sababli moddiy, ma’naviy va hissiy resurslari cheklangan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ana shu qiyinchiliklarga qaramay jamiyat hayotida ongli, mustaqil va teng huquqli ishtirok etishga, o‘z salohiyatini namoyon qilishga, o‘zi va atrofidagilar uchun muhim ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatidir”, – deb ta’riflangan.

Tadqiqotchi Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ilg‘or g‘oyalarini tahlil qilar ekan, jahon madaniyatining noyob yodgorligi “Avesto”da muhtojga ko‘mak berish shaxsiy xayr doirasidan chiqib, ilohiy-axloqiy burch darajasiga ko‘tarilganini ta’kidlaydi[7]. Ur-Nammu va Hammurapi qonunlarida ayni g‘oya ilk yozma huquqiy normaga aylangan bo‘lsa, Forobiy uni o‘zaro yordam tamoyili orqali ijtimoiy hayotning tabiiy asosi deb bilgan. Ibn Sino davlat zimmasiga kunini ko‘ra olmaydigan kishilarni ta’minlash uchun umumiy jamg‘arma ajratish vazifasini yuklab, g‘oyani byudjet darajasiga ko‘targan[8]. “Qutadg‘u bilig”da zaiflarni himoya qilish fuqaroning hukmdor zimmasidagi haqqi sifatida belgilangan, “Siyosatnoma”da esa muhtojga hukmdor huzuriga bevosita yo‘l ochilishi shart deb qaralgan[9]. G‘arb an’anasida bu jarayon Platonning yetimlar vasiyligi tartibidan boshlanib[10], Aristotelning muhtojni mustaqil qatlamga aylantirish g‘oyasi, Akvinskiyning zarurat holatidagi haq ta’limoti, Vivesning kambag‘al bolalar uchun majburiy maktab loyihasi, Smit va Millning ta’limni davlat hisobidan ta’minlash haqidagi qarashlari[11], Kondorse va Peynning tizimli nafaqa dasturlari orqali rivojlangan.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda va muhtoj bolani qo‘llab-quvvatlash an’anasini davom ettirishda ajdodlarimiz merosining o‘rni beqiyos. Xususan, Amir Temur farmonida faqiru miskinlar uchun langarxona, kasallar uchun shifoxona qurish belgilanib, ijtimoiy himoya g‘oyasi aniq davlat tadbiri darajasiga

---

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” mavzusidagi III xalqaro forumning ochilish marosimida so‘zlagan nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/8500

[6] Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya // https://lex.uz/docs/−2595913

[7] Avesta: Vendidad (English): Fargard 19 // https://www.avesta.org/vendidad/vd19sbe.htm

[8] Avicenna. The Metaphysics of the Healing (al−Ilāhiyyāt) / transl. M.E. Marmura. – Provo: Brigham Young University Press, 2005. – Book X, ch. 4. – P. 364–378.

[9] Низомулмулк. Сиёсатнома / Масъул муҳаррир: Шариф Холмурод. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2017. – Б. 24.

[10] Plato. Complete Works / Laws, XI, 926e–928d. – Cambridge: Hackett Publishing Company, Inc., 1997. – P. 1579–1580.

[11] Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – Vol. II. Book V, Ch. 1, Part 3, Art. 2. – London: “Methuen”, 1904. – P. 249–273.

ko‘tarilgan[12]. Jadid ma’rifatparvarlari mazkur an’anani muassasa shaklida davom ettirganlar. Behbudiy ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha bolani ma’rifatli qilish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, Avloniy Mirobodda bepul maktab ochib, millatning yetim bolalarini tarbiyalashni butun jamiyat zimmasidagi jamoaviy burch darajasiga qo‘ygan[13]. Fitrat esa bola tarbiyasini millat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida baholagan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, kambag‘al oila bolalarining ijtimoiy faolligi jamiyatning axloqiy, madaniy va intellektual rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi va mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarning samaradorligini belgilaydi. U inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va teng imkoniyatlarni qaror toptirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollikni oshirish bosqichma-bosqich va tizimli tarzda amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo‘lib, bolani qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhitni mustahkamlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali ijtimoiy taraqqiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kambag‘al oila bolalari ijtimoiy holatining falsafiy tasnifi”** deb nomlanib, unda kambag‘allikning mutlaq, nisbiy va subyektiv ko‘rinishlari, merosiy va orttirilgan turlari, bolalar kambag‘alligining global ko‘lami, muammoni izohlovchi nazariy maktablar va uni qisqartirish bo‘yicha xalqaro amaliyot tahlil qilingan, shuningdek, kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligini oshirishning individual va ijtimoiy omillari tadqiq etilgan.

Bolalar kambag‘alligi bugungi kunda global miqyosdagi eng keskin ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon bo‘ylab qariyb 333 million bola, ya’ni har olti boladan biri o‘ta kambag‘allik sharoitida kun kechirmoqda[14]. Sakson yettita mamlakatda inqirozlar 258 million bolaning ta’lim olishiga ta’sir ko‘rsatmoqda, 93 million bola esa umuman maktabga qatnamaydi[15]. Farovon qatlam bolalarining talablari to‘liq qondirilayotgan bir paytda yuz millionlab bolaning eng zaruriy ehtiyojlari ta’minlanmasligi zamonaviy jamiyatdagi tengsizlikning eng yaqqol ko‘rinishi hisoblanadi.

Tadqiqotda kambag‘allikning falsafiy mohiyati to‘rt jihatdan ochib berilgan. Birinchidan, u insonning imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishi, ya’ni o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqara olmasligi sifatida talqin etilgan[16]; ikkinchidan, jamiyat hayotidan chetlatilish, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy kapitaldan uzilish holati sifatida baholangan; uchinchidan, merosiy va orttirilgan turlarga ajratilib, avloddan avlodga o‘tuvchi tuzilmaviy hodisa deb qaralgan; to‘rtinchidan, teng imkoniyatlar tamoyili

[12] Темур тузуклари / Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 145–146.
[13] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018. – B. 10.
[14] Global trends in child monetary poverty according to international poverty lines // https://www.endchildhoodpoverty.org/coalition−prod/2023childpoverty
[15] Education Cannot Wait. Breaking barriers: Understanding educational exclusion in crises. Global estimates 2026 update. – Geneva, 2026. – P. 2.
[16] Amartya Sen. Development as Freedom. – New York: “Alfred A. Knopf”, Oxford University Press, 1999. – P. 182–185.

adolat mezoni sifatida qabul qilinib[17], bolalar kambag‘alligi zamonamizda saqlanib qolgan eng katta adolatsizliklardan biri deb baholangan.

Shundan kelib chiqib, kambag‘al oila bolalari ijtimoiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar shartli ravishda to‘rtga ajratib tahlil etilgan:

birinchidan, shaxsning ruhiy-ma’naviy holati. Uzluksiz moddiy qiyinchilik va boshqalarning yordamiga muhtojlik hissi bolada “o‘rganilgan ojizlik” holatini keltirib chiqarib, uni faollik o‘rniga passivlikni tanlashga moyil qiladi. Tajribalar moliyaviy tashvish inson tafakkur doirasini toraytirib, uning kognitiv imkoniyatlarini sezilarli pasaytirishini ko‘rsatgan[18];

ikkinchidan, ta’lim darajasi va bilim saviyasi. Ta’lim ijtimoiy lift vazifasini bajaruvchi asosiy mexanizm bo‘lib, oila daromadi qanchalik past bo‘lsa, bolaning yuqori bosqichda tahsil olish ehtimoli shunchalik kamayadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “sifatli ta’lim asosida inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolda kambag‘allikni qisqartirishning asosiy “drayveri” bo‘lib qoladi”[19];

uchinchidan, orzu-intilishlar va hayotiy maqsadlar darajasi. Cheklangan muhitda o‘sgan bolalarning intilishlari ba’zan tor doirada chegaralanadi, ayrimlari esa aksincha, qiyinchiliklarni ko‘rgani bois yuqori maqsadlar qo‘yadi. Maslahatchi va ustoz biriktirish, jamoat tashkilotlarining ko‘magi va muvaffaqiyatga erishgan shaxslar namunasi orqali ushbu intilishlarni qo‘llab-quvvatlash bolaning hayot yo‘lini belgilovchi kuchli omilga aylanadi;

to‘rtinchidan, ijtimoiy muhit va sharoitlar. Bunga jamiyatning kambag‘allikka munosabati va tamg‘alash amaliyoti, davlatning manzilli ijtimoiy himoya siyosati, ta’lim muassasalaridagi inklyuziv muhit, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati hamda hududiy va infratuzilmaviy nomutanosiblik kiradi. O‘zbekistonning an’anaviy madaniyatidagi mahalla instituti, qo‘shnichilik va o‘zaro yordam qadriyatlari mazkur muhitni shakllantirishda alohida o‘rin tutadi.

Bobda kambag‘al oilalarning ijtimoiy xulq-atvoriga ko‘ra tasnifi: tashqi yordamga umid qiluvchi “noumid dezadaptantlar”, har qanday imkoniyatdan foydalanishga harakat qiluvchi “faol adaptantlar”, pul yordamiga emas, ish topishga ko‘mak so‘rovchi “qoniqmas adaptantlar” va barqaror iqtisodiy mavqega erishgan “post-adaptantlar” keltirilgan. Mazkur tasnif kambag‘allik shaxs ongida bir xil aks etmasligini, ya’ni og‘ir vaziyat ba’zilarni sindirsa, boshqalarni toblashini ko‘rsatadi. Uzoq muddat tanqislikda yashagan oilalarda esa taqdirga tan berish kayfiyati shakllanib, bolalar mazkur turmush tarzini o‘zlashtirib olishi mumkin[20].

Tadqiqotchi kambag‘allikni izohlovchi nazariy maktablarni qiyoslar ekan, klassik va neoklassik iqtisodiy qarashlarda muammo asosan shaxsiy mas’uliyat doirasida talqin etilganini ta’kidlaydi. Keyns ta’limotida esa kambag‘allik iqtisodiy sikllar va ishsizlikning oqibati, ya’ni shaxs ixtiyoridan tashqaridagi holat sifatida

[17] Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – P. 73–75.
[18] Mani A., Mullainathan S., Shafir E., Zhao J. Poverty Impedes Cognitive Function // Science. – 2013. – Vol. 341. – Issue 6149. – P. 976–980.
[19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” mavzusidagi III xalqaro forumning ochilish marosimida so‘zlagan nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/8500
[20] Lewis O. The Culture of Poverty // Scientific American. – 1966. – № 215(4). – P. 19–25.

baholanadi[21]. Bentam yordam berish yo‘llari va chegaralari qonun bilan belgilanishi, shaxs farovonligi orqali jamiyat farovonligiga erishilishi lozimligini asoslagan[22]. Ijtimoiy ajralish nazariyasiga ko‘ra kambag‘allik insonni moddiy resurslardan tashqari ijtimoiy tarmoqlardan ham uzib qo‘yadi, bu esa ish va boshqa imkoniyatlarni topishni qiyinlashtiradi[23]. Neoliberal bosqichda bevosita mablag‘ tarqatish o‘rniga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish ustun qo‘yilgan bo‘lsa, ikki minginchi yillardan xalqaro hamjamiyat yana keng qamrovli yondashuvga qaytgan.

Bobda kambag‘allikni qisqartirishning xalqaro amaliyoti umumlashtirilib, qator mamlakatlarda tarixan orqada qolgan qatlamlar bolalariga ta’lim va ish o‘rinlarida ustuvorlik beruvchi affirmativ chora-tadbirlar qo‘llanilishi, shartli naqd to‘lovlar bolaning maktabga qatnashi va emlanishi bilan bog‘lanishi, kichik kreditlar orqali oilalar tadbirkorlikka jalb etilishi ta’kidlangan. Sharq an’anasida ayni vazifa zakot, ushr, sadaqa va vaqf institutlari zimmasiga yuklangan bo‘lib, ularning falsafiy zamini boylikning tor doirada to‘planib qolmasligi haqidagi qoidaga borib taqalshi ko‘rsatiladi[24]. O‘zbekistonda esa “Kelajak markazlari”, “Aqlvoy” avtobuslari, maktabgacha ta’limga imtiyozli qabul va kuni uzaytirilgan guruhlar uchun kvota kabi choralar joriy etilgan, biroq besh yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarning bir qismi hanuz ko‘p o‘lchovli kambag‘allik sharoitida yashamoqda[25].

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, kambag‘al oila bolalarining ijtimoiy holati moddiy yetishmovchilik bilan cheklanmaydi, u insonning jamiyatdagi o‘rni, imkoniyatlari va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Individual va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri bolaning kelajakdagi ijtimoiy ko‘tarilishini belgilaydi, shu bois davlat va jamiyatning vazifasi ularga teng start imkoniyatini yaratishdan iborat. Yondashuvlarning shaxsiy mas’uliyatga tayanishdan inklyuziv o‘sish va inson salohiyatiga sarmoya kiritish sari rivojlangani ijtimoiy davlat mas’uliyatining ortib borayotganidan dalolat beradi, ijtimoiy siyosat esa faqat himoya funksiyasini emas, balki imkoniyat yaratish funksiyasini ham bajarishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda kambag‘al oila bolalarini faol shaxs sifatida shakllantirish sohasidagi islohotlar va ularning istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida ijtimoiy kapital tushunchasining falsafiy mohiyati, uning oila ichidagi bog‘lovchi va qatlamlararo ko‘prik ko‘rinishlari, kambag‘al oila bolalarining ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu bobda mahalla, oila, ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro uyg‘unligi, xalqaro tajribaning milliy zaminga moslashtirilishi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi istiqbolli strategiyalar ochib berilgan.

---

[21] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / редактор Л.П. Кураков. – Москва: “АСТ”, 2024. – С. 19.

[22] Bentham J. The Collected Works. Writings on Political Economy. – Vol. II / edited by Michael Quinn. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P. 122.

[23] Silver H. Social Exclusion and Social Solidarity: Three Paradigms // International Labour Review. – 1994. – Vol. 133(5–6). – P. 531–578.

[24] Qur’oni Karim. Hashr surasi, 7−oyat / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol−Nashr, 2022.

[25] Ўзбекистонда болалар камбағаллиги таҳлили: ЮНИСЕФ ва Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази қўшма ҳисоботи. – Тошкент: ЮНИСЕФ, 2023. – Б. 12–18.

Bugun jahon miqyosida kambag‘allikni qisqartirish faqat daromadni oshirish emas, balki insonlar o‘rtasidagi ishonch va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash masalasi sifatida qaralmoqda. Bunday sharoitda kambag‘al oila bolani ijtimoiy himoya obyekti emas, balki o‘z hayotiga ma’noli ta’sir ko‘rsatuvchi faol subyekt sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizda ilk bor kambag‘allik mavjudligini tan oldik va uni qisqartirish uchun samarali tizim yaratdik. Bu tizim bilan davlat ko‘magiga muhtoj oilalar to‘liq qamrab olindi”[26].

